

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исмолиддинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda xorijiy investitsiyalarning o'rni va ahamiyati

Xujakulova Nigora Rustamovna, Qodirova Mohinur Bahodir qizi

Роль и значение иностранных инвестиций в обеспечении экономического роста

Хужакулова Нигора Рустамовна, Кадирова Мохинур Баходир кизи

The role and importance of foreign investments in ensuring economic growth

Khujakulova Nigora Rustamovna, Kodirova Mokhinur Bakhodir kizi

Received: May 15, 2025 Revised: May 16, 2025 ■ Accepted: May 19, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotatsiya.** Ushbu maqolada investitsiyalardan samarali foydalanishning asosiy tamoyillari, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda investitsiyalarning o'rni va ularning muvaffaqiyatli boshqarilishi haqida so'z yuritilgan. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash asosida uning raqobatdoshligini oshirish maqsadida xorijiy investitsiyalar, avvalo to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ustuvor yo'nalishlari haqida fikrlar keltirilgan hamda tahlil qilingan.
- **Kalit so'zlar.** iqtisodiy o'sish, investitsiya, integratsiya, texnologiya, modernizatsiya, raqobat, samaradorlik, kapital.
- **АННОТАЦИЯ.** В статье рассматриваются основные принципы эффективного использования инвестиций, роль инвестиций в обеспечении экономического роста и успешное управление ими. Представлены и проанализированы идеи по приоритетным направлениям привлечения иностранных инвестиций, в первую очередь прямых иностранных инвестиций, в целях повышения конкурентоспособности экономики на основе модернизации и диверсификации.
- **Ключевые слова.** экономический рост, инвестиции, интеграция, технологии, модернизация, конкуренция, эффективность, капитал.
- **Abstract.** This article discusses the basic principles of effective use of investments, the role of investments in ensuring economic growth and their successful management. The article presents and analyzes the views on the priority areas of attracting foreign investments, primarily foreign direct investments, in order to increase the competitiveness of the economy based on its modernization and diversification.
- **Keywords.** economic growth, investment, integration, technology, modernization, competition, efficiency, capital.

KIRISH

Investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ular nafaqat mamlakatlar, balki

korxonalar va shaxsiy darajada ham katta ahamiyatga ega. Investitsiyalar yordamida ishlab chiqarish quvvatlari oshiriladi, yangi texnologiyalar joriy etiladi, ish o'rinlari yaratiladi va iqtisodiy o'sish ta'minlanadi. Biroq, investitsiyalardan

samarali foydalanish uchun ularni to'g'ri boshqarish, rejalashtirish va amalga oshirish zarur.

Globallashuv sharoitida xalqaro iqtisodiy munosabatlarda davlatlar o'rtasida investitsiyaviy hamkorlik qilishning roli ortib bormoqda. Jahon mamlakatlarida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqori bo'lgan rivojlanayotgan davlatlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilish mexanizmini takomillashtirish, ularning istiqbolli tarmoqlarga kirishini rag'batlantirish va ulardan samarali foydalanish muammolari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish kengaymoqda.

O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash asosida uning raqobatdoshligini oshirish maqsadida xorijiy investitsiyalar, avvalo to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ustuvor yo'nalish sifatida tanlangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Jahonda globallashuv va xalqaro iqtisodiy integratsiyalashuvning kuchayishi natijasida mamlakatlar o'rtasida xalqaro kapital harakati tezlashib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, kapital ko'chishining asosiy shakli bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha ko'plab iqtisodchi olimlarning turli iqtisodiy nazariyalar doirasida o'zlarining yondashuv va qarashlarini ilgari surishlariga turtki bo'lgan. XX asrning 60-yillarida R.Vernon o'zining xalqaro tovar ishlab chiqarish sikli nazariyasida TTXI va xalqaro savdo o'rtasidagi munosabat, tovarning hayotiy sikli kabi muammolarga e'tiborni qaratadi. Muallif xalqaro savdo va xorijiy investitsiyalashning o'zaro ta'siri dinamikasini tadqiq qiladi.

Kanadalik iqtisodchi S.Xaymer esa transmilliy kompaniyalar va sust raqobat nazariyasida transmilliy kompaniyalar (TMK) raqobatdoshligi va ularning xalqaro faoliyatini tahlil qilgan[1]. Xorijiy investorlar uchun chet elga ishlab chiqarish investitsiyalarini kiritish ichki bozorda ishlab chiqarishni tashkil etishdan ko'ra ko'proq xatarlar va harajatlarni keltirib chiqaradi.

J.Danning (1981 y.) to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar determinantlarini kompleks tadqiq qilib, o'zining eklektik paradigmasini (OLI modeli) ilgari suradi[2]. Transmilliy kompaniyalarning xorijiy aktivlari hajmi uch guruh omillar orqali aniqlanadi: xorijiy investorlarning raqobat ustunliklari majmui va tabiati (Ownership-specificadvantaGES, O-ustunliklar); mahalliy omillar va bozorlar majmui va tabiati (Location-specificadvantaGES, L-ustunliklar);

internalizatsiyalashuv natijasida kelib chiqadigan ustunliklar (Internationalization-specificadvantaGES, I-ustunliklar).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada iqtisodiy o'sishni ta'minlashda xorijiy investitsiyalarning o'rni va ahamiyati o'rganildi va tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida fanning dialektika, iqtisodiy tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash, statistik guruhlash, monografik kuzatish, induksiya, deduksiya, mantiqiy va abstrakt fikrlash hamda istiqbolli bashoratlash usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy investitsiyalar texnologiya va bilimning uzatilishi va tarqalishiga, bozor tuzilmasi va raqobatga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi[3]. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, xorijiy investitsiyalarni ko'r-ko'rona jalb qilish har doim ham iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi. Qachonki iqtisodiyotda texnologiya transfertlari ishchilar malakasini oshirish va yangi bilimlarni egallash, zamonaviy boshqaruv va tashkiliy usullarni o'rgatish orqali qabul qiluvchi mamlakat bilim xazirasini oshirsagina TTXIning iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'siri kuzatiladi. Ushbu holatda texnologiya tranfertini harakatga keltiruvchi TTXI mamlakat iqtisodiy o'sishiga ichki investitsiyalardan ko'ra ko'proq ta'sir ko'rsatadi [4].

Bizning fikrimizga ko'ra, TTXI nafaqat investitsiya qabul qilayotgan firmalar samaradorligini, balki texnologiyaning tarqalishi natijasida resipient mamlakatdagi boshqa barcha firmalar samaradorligini ham oshirishga turtki bo'ladi. Buning sababi esa mahalliy mamlakat investorlari ega bo'lmagan texnologiyalar va bilimlarni TTXI orqali mamlakatga olib kelish mumkin va bu albatta iqtisodiyot samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, xorijiy investorlar jahon bozorida faoliyat ko'rsatganlari bois chet el investitsiyalari resipient mamlakatda yo'q bo'lgan zamonaviy tajriba va yuqori malakani ham ushbu mamlakatga taqdim etadi.

Xorijiy investitsiyalarning mamlakatga faol va keng ko'lamda jalb qilinishi har doim ham iqtisodiyotga kutilgan ijobiy ta'sir va samaralarni bermasligi mumkin. Xususan, ba'zi ko'p sonli mamlakatlar guruhi kesimi bo'yicha o'tkazilgan makroiqtisodiy tadqiqotlarga ko'ra, TTXI iqtisodiy o'sishga muayyan shart-sharoitlar va talablar bajarilganda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, mamlakat TTXIning ijobiy ta'siridan foydalana olish uchun yetarli darajada boy bo'lishi kerak, ya'ni muayyan iqtisodiyot uchun o'ziga xos eng kam daromad chegarasi mavjud bo'lib, agar mamlakatdagi aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromad ushbu chegaradan oshsa, u TTXIning ijobiy ta'sirlaridan foydalana oladi [5]. Chunki

muayyan daromad darajasiga ega bo'lgan mamlakat aholisigina yangi texnologiyalarni o'zlashtirish va shu orqali TTXI keltirishi mumkin bo'lgan samarlardan foydalana olish imkoniyatini qo'lga kiritadi. Shuningdek, TTXI moliya bozorlari yetarli darajada rivojlangan hamda iqtisodiyotda savdo erkin yoki ochiq bo'lgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda ijobiy ta'siri kuchli bo'lgan [6].

Hisob-kitoblar hozirgi sharoitda mamlakatimiz iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanishda bir qancha ustuvor yo'nalishlarda kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatdi. Bunda, ayniqsa, xorijiy investitsiyalar bilan bog'liq normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, davlat institutlari sifatini oshirish, erkin iqtisodiy zonalar faoliyati samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, ishchi kuchidan oqilona foydalanishni tashkil etish lozim. Shuningdek, bank tizimi infratuzilmasini rivojlantirish, korporativ boshqaruvni tubdan isloh qilish, tashqi savdoni erkinlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiyotimizda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardan foydalanish borasida huquqiy normalarni yanada takomillashtirish o'z yechimini kutayotgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi[7]. Investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tushunchasiga ta'rif berilmagan, uning portfel investitsiyalardan farqini ko'rsatuvchi chegaraviy mezonlar ham hech bir qonun yoki qonun osti hujjatida aks etmagan. Faqatgina Soliq kodeksi va ba'zi nizomlarda [8] to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar deyilganda chet el davlatining fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va O'zbekiston Respublikasining doimiy ravishda chet elda yashovchi fuqarolari bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek, chet ellik nodavlat yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar tushunilishi aytib o'tilgan. Lekin, bu qisqa ta'rif TTXIning to'liq mohiyatini va boshqa investitsiya turlaridan aniq farqini ochib bera olmaydi. Bu esa ushbu investitsiyalarni hisobga olishda mavhumlik va chalkashliklarni keltirib chiqarishi hamda jahonda qabul qilingan umumiy mezonlardan chetga chiqishga olib kelishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Investitsiyalardan samarali foydalanish nafaqat iqtisodiy o'sishning, balki jamiyatning barcha sohalarini rivojlanishining muhim omilidir. Har bir investitsiya qarori ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi, strategik rejalashtirilishi, risklar tahlil qilinishi va natijalar muntazam ravishda baholanishi kerak. Samarali investitsiyalar iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlab, yangi imkoniyatlar yaratadi va kelajakda barqaror o'sishni ta'minlaydi.

Xorijiy investitsiyalarning respublika uzoq muddatdagi iqtisodiy o'sishiga ijobiy ta'sirini inkor etmagan holda ularning mintaqalar iqtisodiyotining joriy holatiga bo'lgan ijobiy ta'sirini ham kuchaytirish darkor. Bunda, ayniqsa, mintaqalardagi mahalliy davlat hokimiyatlarining hududiy investitsiya dasturlari doirasidagi chet el kapitalini jalb qilishdagi vakolatlarini kengaytirish lozim bo'ladi. Natijada esa xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini soddalashtirish, undagi markazlashgan tizimni yengillashtirish va hududlarning chet el sarmoyasini jalb qilishdagi rag'batini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Xujakulova Nigora Rustamovna – Qarshi davlat texnika universiteti, Innovatsion iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, / Хужакулова Нигора Рустамовна – доцент кафедры инновационной экономики Каршинского государственного технического университета / Khujakulova Nigora Rustamovna – Associate Professor of the Department of Innovative Economics, Karshi State Technical University

► nigorakhujakulova86@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0001-2936-1972>

2. Qodirova Mohinur Bahodir qizi – Qarshi davlat texnika universiteti 1-bosqich magistranti / Кадилова Мохинур Баходир кизи – студентка 1 курса магистратуры Каршинского государственного технического университета / Kodirova Mokhinur Bakhodir kizi – 1st year master's student, Karshi State Technical University

► mohinurbahodirovna9@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0005-7262-233X>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Hymer, S. H. (1960): "The International Operations of National Firms: A Study of Direct Foreign Investment". PhD Dissertation. Published posthumously. The MIT Press, 1976. Cambridge, Mass.
- [2]. Dunning, J. H. (1988): "The Eclectic Paradigm of International Production: A restatement and some possible extensions", in Journal of International Business Studies issue 19 (Spring)
- [3]. Blomstrom M., Kokko A. How Foreign Investment Affects Host Counties. Policy Research Working Paper № 1745, March 1997. P. 44
- [4]. De Mello, L., Jr. (1999). "Foreign Direct Investment-Led Growth: Evidence from Time Series and Panel Data,"

- Oxford Economic Papers 51 (1), January.
- [5]. Blomstrom, M., Lipsey, R.E. and Zejan, M. (1994). "What Explains Growth in Developing countries?". NBER Discussion Paper 1924.
- [6]. Alfaro, Laura, Chanda Areendam, Sebnem Kalemli-Ozcan, and Sayek Selin. (2003). FDI and Economic Growth: The Role of Local Financial Markets. *Journal of International Economics* 61, no.1 (October): 512-33
- [7]. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947 сонли Фармони билан тасдиқланган Давлат дастурининг 184-бандида «Хорижий инвестициялар тўғрисида»ги, «Хорижий инвесторларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш чоралари ва кафолатлари тўғрисида»ги, «Инвестиция фаолияти тўғрисида»ги қонунларни танқидий таҳлил қилиш асосида янги қонун лойиҳасини ишлаб чиқиш вазифаси қўйилган.
- [8]. "Тўғридан-тўғри хусусий хорижий инвестициялар учун солиқ имтиёзларини қўллаш тартиби тўғрисида" Низомнинг 3-моддаси
- [9]. М.О'.Toshpulatov, "Investitsiyalarni boshqarish", Toshkent: Iqtisodiyot va sanoat nashriyoti, 2020.
- [10]. A.A.Karimov, "Iqtisodiy o'sish va investitsiyalar", Tashkent, 2019.
- [11]. S.K.Baranov, "Investitsiyalar va ulardan samarali foydalanish", Moskva: Yuridik nashr, 2018.
- [12]. T.P.Anderson, "Strategic Investment Decisions", Cambridge University Press, 2017.